

VIKIPEDIA INTERNET ENTSIKLOPEDIYASI HAQIDA TUSHUNCHA VA UNING TUZILISHI.

Suyarov Akram Musayevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
Axborot texnologiyalari kafedrası PhD, dotsent

akramsuyarov@mail.ru

Alimova Shaxrizoda Ramzovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
125 guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Vikipediya internet entsiklopediyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ochiq bilimlar platformasi sifatidagi nazariy asoslari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Vikipediyaning tuzilmasi, kontent yaratish va boshqarish mexanizmlari, shuningdek, uning ilmiy va ta'limiy jarayondagi funksional ahamiyati o'rganildi. Olingan natijalar Vikipediyaning zamonaviy raqamli axborot muhitining muhim komponenti sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Vikipediya, internet entsiklopediya, ochiq bilimlar, raqamli axborot muhiti, ilmiy manba, elektron ta'lim.

Abstract. This scientific article provides an in-depth analysis of the formation, development stages, and theoretical foundations of the Wikipedia internet encyclopedia as an open knowledge platform. The research examines the structure of Wikipedia, mechanisms for creating and managing content, as well as its functional significance in the scientific and educational process. The results obtained allow us to assess Wikipedia as an important component of the modern digital information environment.

Keywords: Wikipedia, internet encyclopedia, open knowledge, digital information environment, scientific resource, e-learning.

Globalashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida axborot olish va undan foydalanish shakllari tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy bilim manbalari bilan bir qatorda, internet asosidagi ochiq axborot platformalari keng tarqaldi. Ushbu jarayonda

internet entsiklopediyalari, xususan Vikipediya, bilimlarni ommalashtirishda yetakchi o‘rin egallamoqda.

Vikipediya zamonaviy jamiyatda kollektiv bilim yaratish modeli sifatida e‘tirof etiladi. Uning asosiy farqli jihati shundaki, mazkur platforma professional mualliflar bilan bir qatorda oddiy foydalanuvchilarning ham bilim va tajribasiga tayanadi. Bu holat Vikipediyaning ilmiy ishonchliligi masalasini dolzarb tadqiqot obyekti sifatida kun tartibiga olib chiqadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi Vikipediya internet entsiklopediyasining nazariy asoslari, tuzilishi va funksional imkoniyatlarini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish hamda uning zamonaviy ilmiy-ta’limiy muhitdagi o‘rnini aniqlashdan iborat. Yuqoridagi maqsadlar asosida quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Vikipediya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish;
2. Vikipediyaning tuzilmasi va ishlash mexanizmlarini tahlil qilish;
3. Internet entsiklopediyalarini an’anaviy entsiklopediyalar bilan taqqoslash;
4. Vikipediyaning ilmiy va ta’limiy jarayondagi imkoniyatlari hamda cheklovlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti etib zamonaviy raqamli entsiklopedik axborot resurslari. Tadqiqot predmeti esa Vikipediya internet entsiklopediyasining tuzilishi, boshqaruv modeli va axborot sifati.

Internet entsiklopediyalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda Vikipediya ko‘pincha “ochiq bilimlar ekotizimi” sifatida talqin qilinadi. A. Lih o‘z tadqiqotlarida Vikipediyaning kollektiv intellekt mahsuli sifatida baholab, uning an’anaviy entsiklopediyalardan ustun jihatlari ko‘rsatib bergan. J. Giles tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa Vikipediya ilmiy maqolalar sifati Britannika kabi nufuzli entsiklopediyalar bilan taqqoslangan.

Respublikamiz olimlari ilmiy ishlarida, maqolalarida Vikipediya internet entsiklopediyasining turli jihatlari tadqiq qilingan bo‘lsada, lekin hozirgi sharoitda kompleks tarzda yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa, ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot olib borish zarurligini taqozo etadi.

Shu bilan birga, ayrim olimlar Vikipediyada kontent yaratish jarayonining ochiqligi subyektivlik va noto'g'ri axborot tarqalishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Bu fikrlar Vikipediya ilmiy manba sifatida baholashda tanqidiy yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslangan: tizimli-strukturaviy tahlil, taqqoslash (komparativ) usuli, ilmiy manbalarni tahlil qilish va umumlashtirish, mantiqiy va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi.

Vikipediya 2001-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda dunyodagi eng yirik ko'p tilli internet entsiklopediyasiga aylangan. Platformaning asosiy konsepsiyasi ochiqlik va erkin tahrir tamoyiliga asoslanadi. Bu esa bilimlarni tezkor yangilash va keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi.

Vikipediyaning tuzilmasi quyidagi asosiy elementlardan tashkil topgan:

- asosiy maqolalar bazasi;
- muhokama va tahrir sahifalari;
- manbalar va havolalar tizimi;
- foydalanuvchilar va administratorlar ierarxiyasi;
- texnik va dasturiy infratuzilma.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Vikipediya ta'lim jarayonida qo'shimcha axborot manbasi sifatida samarali hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ma'lumot olish va mavzu bo'yicha umumiy tasavvur shakllantirishda uning ahamiyati yuqori. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlarda Vikipediya birlamchi manba emas, balki yo'naltiruvchi axborot vositasi sifatida qaralishi lozim.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida xulosa shuni ta'kidlash mumkinki, Vikipediya internet entsiklopediyasi zamonaviy axborot jamiyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning ochiq va kollektiv tuzilishi bilimlarni demokratlashtirishga xizmat qiladi. Biroq ilmiy faoliyatda undan foydalanishda tanqidiy yondashuv va ishonchli manbalar bilan solishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmanova Zulxumor Turdiyevna. KOMPYUTER LINGVISTIKASI. o‘quv qo‘llanma, Hajmi 15,4 b/t. OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi. Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.
2. Татьяна Славкина. Статья. «Интернет-энциклопедия Википедия как эффективный немедийный канал информационного продвижения компании»// URL: <file:///C:/Users/User/Downloads/internet-entsiklopediya-vikipediya-kak-effektivnyy-nemediynyy-kanal-informatsionnogo-prodvizheniya-kompanii-2.pdf> (дата обращения: 13.12.2025).
3. Сафонова В. Ю. О ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИКИПЕДИИ (WWW.WIKIPEDIA.ORG) КАК ИСТОЧНИКА ДОСТОВЕРНОЙ НАУЧНОЙ ИНФОРМАЦИИ // Информация и образование: границы коммуникаций INFO. 2018. №10 (18). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-vozmozhnosti-ispolzovaniya-vikipedii-www-wikipedia-org-kak-istochnika-dostovernoy-nauchnoy-informatsii> (дата обращения: 13.12.2025).
4. Lih A. Wikipedia Revolution: How a Bunch of Nobodies Created the World’s Greatest Encyclopedia. — Cambridge: MIT Press, 2009. Giles J. Internet encyclopedias go head to head // Nature. — 2005. — Vol. 438. — P. 900–901. Wikipedia Contributors. Wikipedia: The Free Encyclopedia.